

**MULOQOT MATNIDA VA BADIY ASARLARDI FRAZELOGIK
IBORALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.****Naimova Parvina Rustamovna***parvinarustamovna93@gmail.com**Samarqand Davlat chet tillar insituti o'qituvchisi.*

Muloqot matni bu insonlarning turli xil maqsadda va faoliyatda o'zgalar bilan o'rnatgan aloqasidir desak adashmagan bo'lamiz. Insonlar doimiy tarzda muloqotga ehtiyoj sezadilar va bu esa tabiiy holatdir. Shaxsni hayvondan ajratib turuvchi muhim bir farqlaridan biri muloqot qila olishidir.

Muloqot turli maqsadlarda qurilib, ikki va undan ortiq kishilar orasida olib boriladigan faoliyat bo'lib, miyadagi mavjud fikr va mulohazalarimizni tilga ko'chiradi va fikrlar o'zaro almashinadi. "Muloqot nazariyasi" da muloqotga shunday ta'rif beriladi. " Muloqot inson faoliyatining alohida turi sifatida tahlil qilinadi. Unga ko'ra muloqotning asosiy 3 jihati mavjud. Bular:

- Komunikativ-axborot almashish
- Interaktiv - o'zaro ta'sir
- Perseptiv-bir-birini tushunish"[1]

Badiiy asarlar bu insonlar uchun juda ham muhim bo'lib, rivojlanishda, yuqori marra larni qo'lga kiritishimizda, keng fikrlash, chuqur o'ylashda va to'liq mulohaza qilishimizda uning o' rni juda ham muhim. Biz asarlar mutolaa qilganimizda o'zga hayot tasiriga tushib qolamiz va barcha voqealarni tasavvurimizda ko'ramiz va qalbdan ularni his qilamiz. Bu esa bizni o'zligimizni anglashga, fikrimizni to'liq ifodalay olishimizga zamin yaratadi. Badiiy asarlar mutolaa qilguvchi insonlarning doimo qalbida sokinlik, fikrlarida aniqlik mavjud bo'ladi. Belinskiy badiiy asarni jamiyat hayotini, inson ruhiyatini aks ettiruvchi, tarbiyaviy kuchga ega ijtimoiy hodisa sifatida izohlaydi. [2]

Muloqot matnida endi frazeologik birliklarning namoyon bo'lishini ko'radigan bo'lsak, eng avvalo kunlik muloqot matnimizga e'tibor qaratmog'imiz joyizdir. Biz doimo muloqotga ehtiyoj sezamiz va shu bilan birgalikda muloqotning aniqligi va ta'sirchanligi ham biz uchun juda muhimdir. Ushbu vaziyatda so'zlashuv jarayonida frazeologik iboralar bizga yordamga keladi. Misol uchun biz xafa bo'lganligimizni "men xafaman" degan so'z bilan ifodalasak atrofdagilarni diqqat etiborini torta olamaymiz. Lekin " ko'nglim sindi", "yuraginga og'ir botdi" deb ayt sak insonlar nazdida, ularning tasavvurida haqiqiy holatimiz g avdalanadi. Ya'ni frazeologik ibora muloqotda o'z kuchini ko'rsatadi. Yoki boshqa bir vaziyatlarda qo'llaydigan bo'lsak, masalan " u juda yomon" degan so'zni o'rniga "ilonni yog'ini yalagan" yoki "tulki" ekan degan iboralarni qo'llasak so'zimizning ta'sir kuchi ortadi va insonlarning diqqatini ham tortadi.

Frazeologizmlarda yana xalqning nechog'lik donishmandligi va so'zga boyligi ham namoyon bo'ladi. Chunki unda doimo aqlli fikrlar namoyon etiladi. Har bir aytilayotgan so'z ma'noga boy va falsafiy sanaladi.

Frazeologik iboralarning muloqot matnida hamda badiiy asarlarda tutgan o' rni juda ham muhim bo'lib, ma'noni to'liq anglashda, vaziyatni boricha ko'rsatib bera olishga

ko'maklashadi. Frazеologik iboralar – ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'lib, tildagi va nutqdagi tayyor birlik sanaladi. Ular doimo ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Asosiy belgilari:

- Barqarorlik – ya'ni o'zgarmasligi. - Ko'ngli tog'dek ko'tarildi.

- Ko'chma ma'no – doimo so'zlar o'z manosida emas, ko'chma ma'noda qo'llaniladi. - Ko'z quloq bo'l.

- Tayyor holda qo'llanilishi. - Tili uzun, qo'li kalta.

Badiiy asarlarda doimo yozuvchilar asarni jonlantirish maqsadida frazeologik birliklardan foydalanadilar. Bu esa o'quvchiga savol tug'ilmasligi va vaziyatni to'liq anglashiga va to'g'ri tasavvur qila olishiga xizmat qiladi. “*Otabek otasi bilan gaplashar ekan ko'ngli tog'dek ko'tarildi, ammo Kumushni o'ylaganida yuragi muzlab ketdi*”. Ushbu parchada ikkita frazeologik birlik qo'llanilgan:

- Ko'ngli tog'dek ko'tarildi.

- Yuragi muzlab ketdi. Ushbu ikki frazeologik birliklar ma'noni to'liq yoritishga, vaziyatni borligicha his qila olishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga gapning qisqa va lo'ndaligini ham ifodalamoqda. Chunki ushbu vaziyatda yozuvchi o'xshatish yoki ko'chma ma'no bilan ya'ni frazeologik birlik bilan gapni ifodalamaganda, ushbu ma'noni berish uchun, ushbu vaziyatni tushuntirish uchun ko'p so'zlar kerak bo'lardi va shu bilan bir qatorda gapning ta'sirchanligi yuqolardi. Tog'dek ko'taridi- yuragi muzlab ketdi iboralari bu yerda antonimlikni ham ifodalab kelmoqda. Ya'ni juda xursand va qattiq xafalikni frazeologik birliklar namoyon etmoqda.[3]

“*Zebo opaning ko'zidan uyqu qochdi, yuragi og'ziga kelib, u bir zum ham tinchimadi*”. Ushbu parcha Cho'lponning mashhur asarlaridan biri bo'lmish “Kecha va Kunduz” kitobidan olingan va bu kabi frazeologik birliklar qatori ushbu asarda katta miqdorni tashkil etadi.

- ko'zidan uyqu qochdi

- yuragi og'ziga kelib

- bir zum ham tinchimadi.

Ushbu birgina gapda uchta frazeologik birlik qo'llangan bo'lib, bu yozuvchining nechog'lik mahoratligini namoyon etadi. Zebo opaning ayni damdagi vaziyati ushbu frazeologik birliklar orqali yorqin va aniq tarzda ifodalanyapti. Ya'ni uning uxlayolmayotganligi, qo'rqib xavotirlanayotganligi, asabiy va bezovtaligi ushbu iboralar nazdida aks ettirilgan. Oddiy so'z bilan ifodalanganda ushbu vaziyat bu darajada tasirli bo'lmasdi va o'quvchining diqqat etiborini ham tortmasdi. Frazеologik bilan berilganligi bois, ta'sir kuchi va shu bilan tasavvur yuqori darajada.[4]

Yuqorida aytib o'tganimizdek, frazeologik birliklar til uchun juda ham muhim bo'lgan hodisa hisoblanadi. Nafaqat badiiy adabiyotda, balki kundalik muloqot matnida keng tarzda qo'llanilib, fikrlar aniqligi, ta'sir kuchi va shu bilan birgalikda ma'noning to'liq ifoda etilishiga xizmat qiladi. Oddiy so'zlar frazeologik birliklar o'rnida qo'llansa ma'noni kuchaytirib bera olmaydi. Chunki oddiy so'zlarda rang-baranglik mavjud emas. Shunday ekan tilimiz doimo frazeologik birliklar ehtiyoj sezadi va ularning gapdagi o'rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR:

1. Leontyev A.A. “Muloqot psixologiyasi”. T.- Moskva, 1974.
2. Belinskiy V. “Adabiyot, tanqid va estetika haqida maqolalar” T- Moskva 1953
3. Qodiriy A. “O'tgan kunlar” T-Sharq, 2014.
4. Cho'lpon “Kecha va Kunduz” T- sharq, 1934